



SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA MA'NAVIYAT SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

Islomova E'zoza Yorqin qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524975>

ARTICLE INFO

Received: 01st January 2023

Accepted: 10th January 2023

Online: 11th January 2023

KEY WORDS

Shukur Xolmirzayev,
ma'naviyat, bilim, aql, mafkura,
madaniyat, ma'rifat.

ABSTRACT

Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va o'zining mahorat bilan yaratilgan betakror ijodi orqali o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan taniqli adibdir. Ushbu maqolada yozuvchining hikoyachilikdagi badiiy mahorati tahlil qilinib, asarlarida qo'llanilgan ma'naviyatga oid so'zlar izohlangan.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotining yuksalishida o'zining sermazmun va takrorlanmas asarlari bilan samarali hissa qo'shgan zabardast yozuvchilardan biri Shukur Xolmirzayevdir. Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko'plab maqolalar va tadqiqotlar, jumladan, H.Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti" risolasi, akademik B.Nazarovning "Shukur Xolmirzayev" nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bundan tashqari yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboyev, O.Otaxonov, R.Qo'chqorovlarning; adibning qissalari to'g'risida M.Qo'shjonov, A.Rasulov, M.Olimov; romanlari haqida U.Normatov, O.Tog'ayev, I.G'afurov, S.Sodiqov va boshqa adabiyotshunos olimlarning maqolalari e'lon qilingan. Biroq bu tadqiqot va maqolalarda Shukur Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan edi. Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy so'z san'ati, tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tavaldiyeva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar yozuvchining hikoyachilikdagi o'ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosa berganlar.¹

Shukur Xolmirzayev til imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalana olgan yozuvchi sifatida o'z asarlarida turli ma'no nozikliklarini mahorat bilan ifodalagan. Xususan, hikoya va romanlarida sinonim, antonim, omonim, frazema va boshqa shu kabi birliklar qatorida *ma'naviy* so'zlarning qo'llanilishiga ham alohida e'tibor qaratgan: "Ha-da: shu narsalar ham ta'sir etgandi-da menga... *Ma'naviyat*ning qadri shunchalar tushib ketadimi? Yeb, ichib, boringki, tug'dirib, uxlaydiganlar zamoni kelganday: holbuki, bu ish – faqat jonli jonivorlarga xosdir. Axir, bizlar – odam... Buning ustiga, "*madaniy odam?*" deyishadi bizni...yam! Prezident mahkamasidagi mulozimlar ham nuqul "*Mafkura* tamom! Iqtisodni o'ylash kerak!" deb uqtirishadi. Holbuki, shu – iqtisodni o'ylash ham – demak, *mafkura* ekanini, insonni o'ylash

¹ Tavaldiyeva G. Sh. Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat munosabatlarining badiiy talqini. 2020. 3-bet.



ekanini tushunishmaydi” (Quyosh-ku falakda kezib yuribdi). *Ma’naviyat* [arabcha – axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar] – insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmui.² Olimlarning fikricha, ma’naviyat atamasi, bir tomondan, arabcha *ma’ni* o’zagidan hosil bo’lgan. Narsa-hodisalar, jarayon, tabiat va jamiyat, hatto Allohning mohiyati *ma’nada* o’z ifodasini topgan. Ikkinchi tomondan, *ma’naviyat* ham, uning o’zagi *ma’na* ham qadimgi hind falsafasida keng qo’llanilgan *manas* tushunchasi bilan bog’langan bo’lishi mumkin.³ Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga insonning ko’rinishi, kiyinishi, xatti-harakati kabilar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishi va ichki kechinmalarini o’z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir. *Madaniy* [shaharlik, madinalik] – madaniyatga oid, madaniyat, ilm-ma’rifat bilan bog’liq; madaniyatli, madaniyatni egallagan, madaniyatga erishgan, madaniyatga javob beradigan. ⁴ *Mafkura* [arabcha – fikr yurgizish, tafakkur, e’tiqod va maslaklar tizimi] – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui. ⁵ *Mafkura* ko’proq jamiyatning siyosiy sohasini aks ettirib, shubhasiz, ma’naviyatga asoslanadi. Ma’naviyatsiz mafkuraning mohiyatini, ruhi va tabiatini bilish mumkin emas. Ushbu gaplardagi *ma’naviyat*, *madaniy*, *mafkura* so’zlarining semalari bir-biriga yaqin bo’lib, o’zbek tiliga arab tilidan o’zlashgandir. Parchada asar qahramonining ma’naviyatsiz insonlarning ahvoli, xatti-harakatlari, atrofda sodir bo’layotgan voqea-hodisalariga nisbatan norozi munosabatda bo’lishi; yeb-ichish, uxlash bilan vaqtni zoye ketkazish faqat jonli jonivorlarga xos ekanligi va insonni hayvondan farqlovchi xususiyat ham aynan ma’naviyat ekanligini nafaqat hamsuhbatlariga, balki butun jamiyatga anglatmoqchi bo’ladi. Shu bilan birga ma’naviyatga ega inson jamiyatda *madaniy odam* mavqeyiga ega bo’lishini yaqin atrofdagilariga tushuntiradi. *Mafkura* esa aslida inson haqida qayg’urish, uning haq-huquqlarini himoya qilish ekanligini va bu tushunchani ma’naviy barkamol insongina anglab yetishi mumkinligini ta’kidlaydi. Yozuvchi parchada *ma’naviyat*, *madaniy*, *mafkura* kabi ma’naviy so’zlarni qo’llagani bejiz emas. *Ma’naviyat* insonning yetuk salohiyat, ilm-ma’rifat, axloqiy, ruhiy barkamolligini ifodalovchi tushuncha; *madaniy* esa shu xususiyatlarga ega bo’lgan shaxs; *mafkura* esa o’sha insonning ma’naviy-madaniy salohiyati natijasida yuzaga kelgan g’oyalari hamda harakatlari majmuidir. O’ylab qaragam, bolalar o’yinlarida gap ko’p ekan. Biz o’sha o’yinlarda faqat jismonan emas, balki *ma’naviy* jihatdan ham chiniqar ekanmiz” (Chillak o’yin). “Shunday o’ylashga qandaydir *ma’naviy* haqqim borligi uchunmi, hatto Tavakkalning qo’ng’iroq qilmagani qandaydir malolroq kelib turgan kunlarning birida...” (Quyosh-ku falakda kezib yuribdi). Gaplarda qo’llangan *ma’naviy* so’zi “O’zbek tilining izohli lug’ati”da shunday izohlangan: *Ma’naviy* [arabcha – ma’noviy, aqliy, mavhum, axloqiy] – ma’naviyatga oid, ma’naviyat, axloq bilan bog’liq. Ushbu gaplarda qo’llangan *ma’naviy* so’zi bevosita insonning aqliy tafakkuri natijasida yuzaga keladigan falsafiy, huquqiy, ilmiy, axloqiy, badiiy va diniy tasavvurlarini o’z ichiga oladi. Yozuvchi bu o’rinda ma’naviyat insonda tayyor holda vujudga kelmasligi, unga muttasil va tinimsiz o’qib-o’rganish, izlanish,

² O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent, I jild, 2006. – 565-bet.

³ E. Umarov, M. Abdullayev. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Cho’lpon nomidagi nashriyot, 2006. 5-6-betlar.

⁴ O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent, I jild, 2006. – 520-bet.

⁵ O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent, I jild, 2006. – 558-bet.



tajriba orttirish natijasida erishish mumkinligini ta'kidlaydi. "Keyinchalik Toshkentda partiya kadrlari tayyorlash kursida olti oy tahsil ko'rib keldi. Bor-yo'q olgan *bilimi* shu bo'ldi" (Kechagi kun kecha). "Lekin Sobirova opa tengqur dugonalarining o'z o'rniga ishlab yurganiga bois – vaqti kelganida ular *bilimini* oshirib qolishgani, maxsus kurslarga bolalarini yolg'iz qoldirmaslik uchun u borolmaganida ularning o'qib kelgani – shuni Sobirova tan olgisi kelmas edi" (Kechagi kun kecha). Bilim – 1. Obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va boshqa) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmui; ilm. 2. O'qimishlilik darajasi, ma'lumot, qobiliyat.⁶ Bilim ham aqliy, ham jismoniy mehnat tufayli yuzaga keladi. Bilish tafakkur bilan bog'langan, tafakkur esa amaliyotga asoslanadi, unga yo'naltirilgan bo'ladi. Bilish natijalari, ularning birligi, yig'indisi sifatida bilim yuzaga keladi.⁷ Insonning jamiyat va tabiat haqidagi ma'lumotlari va voqelikning o'z tafakkurida aks etishi bilimdir. "Masalan, O'rta Osiyo antik tarixining *bilimdoni* professor Masson bu masalaga biroz shubha bilan qaraydi. Holbuki, u kishining rafiqasi – antik san'at *bilimdoni* Galina Anatolyevna Pugachenkova bu masalaga zarracha shubha qilmaydi" (Qush tili). Bilimdon – 1. Bilimlarni mukammal egallagan; katta ilmga, ma'lumotga ega bo'lgan; bilag'on, o'qimishli; bilimli. 2. Katta ish tajribasiga ega; o'z ishining sohasini yaxshi biladigan; omilkor, bilarmon [O'TIL, I tom. 2006. 261-b].

"Siz, demak, *aql* bilan, tadbirkorlik bilan ish tutgansiz". "Bu ikkisi ham nafaqat jon, balki *aql* ham kirgan kabi har qaysi hali o'tirgan joylarida yotgan tayoqlarini olib, qoyadan oshib tushgan kaklikka tashlanishdi". "Kelinglar, hech qursa o'zimiz, mana shu torgina davramiz ahli *aql* bilan, insof bilan qadam bosaylik". "Lekin bizlar odamlarmiz. Har holda, *aqlimiz* bor" (Ozodlik). *Aql* arabcha *es-hush* ma'nosini anglatib, inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati, fikrlash qobiliyati demakdir [O'TIL, I tom. 2006. 126-b].

"Buxoroning *ma'rifatli* mulla odamlaridan bo'lgan Arslon aka, keyin, o'g'lini Buxoroga eltib, Mir Arab madrasasiga qo'ygan". "Demak, uning obod bo'lishi, *ma'rifatli* bo'lishi, demak... o'z ro'zg'oridagi a'zolarining ma'murchilikda yashashi uchun qayg'urishi kerak edi!", "Men azbaroyi Buxoroning boy, *ma'rifatli*, harbiy va iqtisodiy qudrati yuksak mamlakatga aylanishini istar edim..." (Qil ko'prik). *Ma'rifat* tushunchasi ham *madaniyat*, *ma'naviyat* bilan bog'liq. *Ma'rifat* ma'naviy qaramlikni bartaraf etadi, insonga kuch-qudrat beradi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Muallif ushbu asarida ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshirilishini, ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topishi muqarrarligi va kelajagi porloq bo'lishini ifodalaydi. *Ma'rifat* ham arabcha so'z bo'lib, bilim, fan, ma'lumot, tanishish ma'nolarini anglatib, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyatni bildiradi. [O'TIL, II tom. 2006. 561-b]. *Ma'rifatga* erishgan inson esa *ma'rifatlidir*.

Hayotni teran anglay olgan, inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni seza oladigan, tabiat chizgilarini o'z asarlarida rassomday tasvirlay oladigan mahoratli yozuvchi Shukur Xolmirzayev o'z ijodida tabiat qonuniyatlari, tabiiylik, inson va tabiat munosabatlarini mahorat bilan tasvirlash bilan birgalikda, o'z qahramonlari ruhiyati, xarakterini ochib

⁶O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, I jild, 2006. – 260-bet.

⁷E. Umarov, M. Abdullayev. *Ma'naviyat asoslari*. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2006. 12-bet.



berishda tafakkur unsurlaridan, ya'ni ma'naviyat bilan bog'liq so'zlardan ham o'rinli foydalangan. Yozuvchi o'z asarlarida turkiy so'zlarning qo'llanilishiga katta e'tibor qaratsa-da, ma'naviyat bilan bog'liq so'zlarni ifodalashda asli arabcha bo'lgan tushunchalardan ko'mak olgan. Ijodkor asarlari tasvirida tirikchilik qiyinchiliklari bilangina o'ralashib qolmaydi, ma'naviyat masalalariga ham alohida e'tibor qaratadi. Zamon talotumlari ma'naviyatimiz mustahkamligi va mustaqilligida jiddiy salbiy iz qoldirayotganligiga ishora qiladi. Bunga bir jihatdan, jamiyat norasolliklari sabab, qolaversa, ikkinchi jihatdan, bu hol ko'proq irodasi sust kishilarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek hikoyachiligida katta maktab hisoblanadi. "Yozuvchi millat ruhidan kelib chiqmasa, bo'lmas ekan", degan o'z iqrornomasi uning butun ijodini, asarlarini, shaxs sifatidagi tabiatini tutashtirib turadi.

References:

1. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Universitet. – 2006.
2. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Talqin. – 2005.
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati". – Toshkent, 2006.
4. E. Umarov, M. Abdullayev. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent, 2006.
5. Sh. Xolmirzayev. Qil ko'prik. – Toshkent, 1984.
6. Sh. Xolmirzayev. Saylanma, 1-jild. – Toshkent, 2003.
7. Sh. Xolmirzayev. Saylanma, 3-jild. – Toshkent, 2006.